O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi



2023- yil avgust

# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ISTE’MOL NARXLARI INDEKSI

**Iste’mol narxlari indeksi (INI)** iste’mol sektoridagi inflyatsion jarayonlarning asosiy indikatori sifatida alohida o‘rin egallab, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy holatini baholashda hal qiluvchi ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi.

## AVGUST OYIDAGI YIG‘MA INI, % da

o‘tgan oyga nisbatan




2023- yilning avgust oyida oylik INI **100,5 %** ni, 2022- yilning dekabriga nisbatan esa **103,8 %** ni tashkil etdi. INI o‘rtacha oylik o‘sish sur’ati joriy yilning yanvar-avgustida **0,5 %** ga yetdi.

Yillik nisbatda (o‘tgan yilning avgustiga nisbatan) yig‘ma INI **109,0 %** darajasida qayd etildi.

o‘tgan yilning dekabriga nisbatan




o‘tgan yilning avgustiga nisbatan



## 2023- yilning iyul oyida Yevropa Ittifoqining ayrim davlatlaridagi uyg‘unlashtirilgan (garmonik) indeks, o‘sish (pasayish) sur’ati % da[1]




## 2023- yilning iyul oyida ayrim davlatlardagi yig‘ma INI, o‘sish (pasayish) sur’ati % da[2]




[1]) https://ec.europa.eu/eurostat/databrowser/view/PRC_HICP_MANR__custom_3761882/bookmark/table?lang=en&bookmarkId=4ad27e6f-358a-4a3d-82a0-587d69a833eb

[2]) milliy statistika xizmatlarining rasmiy saytlaridan olingan ma’lumotlar asosida

INI turli shakllarda dunyoning ko‘plab davlatlarida, shu jumladan, qo‘shni davlatlarda ham hisoblanadi.

Yevropa Ittifoqi doirasida milliy INIdan tashqari uyg‘unlashtirilgan (garmonik) INI ham e’lon qilinib, mazkur indeks uyg‘unlashtirilgan ko‘rsatkichlarga muvofiq hisob-kitob qilinadi va shu sababdan Yevropa Ittifoqi mamlakatlaridagi iste’mol inflyatsiyasini xalqaro taqqoslash uchun maqbul statistik asos hisoblanadi.

Respublikada INIni hisoblash 1994- yilda XVJning texnik ko‘magi ostida joriy qilingan. INIni shakllantirishga “Iste’mol narxlari indeksi bo‘yicha qo‘llanma: Nazariya va amaliyot” (XVJ, IHRT, Yevrostat, BMT, YIK, Jahon banki va XMT) tavsiyalarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan Tovarlar va xizmatlarning iste’mol narxlari (tariflari) kuzatuvini tashkil etish hamda iste’mol narxlari indeksini hisoblash bo‘yicha uslubiy nizom (Davlat statistika qo‘mitasining 2022- yil 27- sentabrdagi 33-son qarori bilan yangi tahriri tasdiqlangan) asos bo‘lib xizmat qiladi https://lib.stat.uz .

2023- yilning avgustida tovarlar bo‘yicha INI oy davomida **100,5 %** ni, xizmatlar bo‘yicha esa **100,7 %** ni tashkil etdi. Joriy yil boshidan ushbu ko‘rsatkich mos ravishda **103,8 %** va **104,1 %** ga yetdi. Yillik nisbatda ko‘rsatkich **109,1 %** va **108,5 %** ni tashkil etdi.

## TOVARLAR



| | 2019- y. | 2020- y. | 2021- y. | 2022- y. | 2023- y. |
|---|---|---|---|---|---|
| o‘tgan oyga nisbatan | 102,2 | 100,5 | 100,7 | 100,6 | 100,5 |
| o‘tgan yilning dekabriga nisbatan | 107,3 | 105,1 | 104,9 | 107,9 | 103,8 |
| o‘tgan yilning avgustiga nisbatan | 115,9 | 112,9 | 112,1 | 113,9 | 109,1 |

## XIZMATLAR



| | 2019- y. | 2020- y. | 2021- y. | 2022- y. | 2023- y. |
|---|---|---|---|---|---|
| o‘tgan oyga nisbatan | 105,6 | 100,4 | 100,2 | 100,4 | 100,7 |
| o‘tgan yilning dekabriga nisbatan | 111,5 | 104,0 | 104,5 | 104,0 | 104,1 |
| o‘tgan yilning avgustiga nisbatan | 118,6 | 107,5 | 107,6 | 107,1 | 108,5 |

Tasdiqlangan Uslubiy nizomga muvofiq, narxlarni ro‘yxatga olish har oyning **10**- sanasidan **20**- sanasigacha amalga oshiriladi. Ma’lumotlarni yig‘ish shunday tashkil etilganki, bu vaqt oralig‘ida narxlarni ro‘yxatga olish har bir tovar va xizmat bo‘yicha bir marta amalga oshiriladi va qo‘shni davrlar uchun ro‘yxatga olish oralig‘i bir kalendar oyni tashkil qiladi. INIni hisoblashda faqatgina inflyatsiya omillarini aniqlash uchun assortiment va hududiy siljishlar omillarining ta’siri chiqarib tashlanadi.

Jami **510**

**170** ta tovar pozitsiyasi — **Oziq-ovqat mahsulotlari**

**250** ta tovar pozitsiyasi — **Nooziq-ovqat mahsulotlar**

**90** ta xizmat pozitsiyasi — **Xizmatlar**

### avgust oyida o‘tgan oyga nisbatan




### avgust oyida o‘tgan yilning dekabriga nisbatan




### avgust oyida o‘tgan yilning avgustiga nisbatan




2023- yilning avgustida oziq-ovqat mahsulotlari qisqa muddatli INI **100,6 %** ni, nooziq-ovqat mahsulotlarda **100,4 %** ni va xizmatlar bo‘yicha **100,7 %** ni tashkil etdi. O‘tgan yilning dekabriga nisbatan INI oziq-ovqat mahsulotlari bo‘yicha **103,7 %**, nooziq-ovqat mahsulotlarda **103,8 %** va xizmatlar bo‘yicha **104,1 %** darajasida qayd etildi. Yillik nisbatdagi INI oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlar uchun **110,6 %** va **107,3 %** darajasida, xizmatlar uchun **108,5 %** darajasida qayd etildi.

Iste’mol narxlarining o‘zgarishi kuzatuvlari doirasida har oyda **10 mingdan** ortiq savdo nuqtalari va xizmat ko‘rsatish obyektlari kuzatiladi, **120 mingdan** ortiq narx kotirovkalari qayd etiladi.

## OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI




## NOOZIQ-OVQAT MAHSULOTLAR




## XIZMATLAR




- o‘tgan oyga nisbatan
- o‘tgan yilning dekabriga nisbatan
- o‘tgan yilning mos oyiga nisbatan

2023- yilning yanvar-avgustida oziq-ovqat mahsulotlari bo‘yicha qisqa muddat-li INI dinamikasi mav-sumiylik omili ta’sirida shakllandi. Iyun va iyul oyida odatga ko‘ra oziq-ovqat mahsulotlari INI 100 % lik dara-jadan past bo‘lgan bo‘lsa, avgust oyida ular narxlarida yana ko‘tarilish qayd etildi.

Oziq-ovqat mahsulotlarining yillik INI joriy yilning sakkiz oyi davomida yanvar oyidagi **115,4 %** dan avgust oyida **110,6 %** gacha pasaydi. Shu bilan birga, mazkur ko‘rsatkich o‘zining eng past darajasiga iyun oyida (**110,5 %**) yetdi.

Nooziq-ovqat mahsulotlar va xizmatlar bo‘yicha qisqa muddatli INI o‘zgarish sur’atlari keskin tebranishlarsiz (eng yuqori INI **100,7 %** ga yetdi, eng past INI **100,2-100,3 %**) bosqich-ma-bosqich o‘sish tomonga yo‘naldi .

# MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI HISOBISIZ INI, % da

avgust

## YIG‘MA INI / OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI INI

### o‘tgan oyga nisbatan







### o‘tgan yilning dekabriga nisbatan







### o‘tgan yilning avgustiga nisbatan







Meva-sabzavot mahsulotlari narxlari o‘zgarishini hisobga olmaganda 2023- yilning avgustidagi qisqa muddatli INI **100,5 %** ni tashkil etdi.

2022- yilning dekabriga nisbatan ushbu ko‘rsatkich **104,2 %** darajasida, 2022- yilning avgustiga nisbatan esa – **108,8 %** darajasida qayd etildi.

# ASOSIY GURUHLARDA NARXLAR O‘ZGARISHINING YIG‘MA INI O‘SISH SUR’ATIGA TA’SIRI TUZILMASI, f.d.*

avgust oyida o‘tgan oyga nisbatan




Oziq-ovqat mahsulotlari narx o‘zgarishlarining 2023- yil avgustdagi qisqa muddatli INI o‘sish sur’atiga ta’siri hissasiga kuzatiladigan tovarlar va xizmatlar umumiy ta’sirining **44,5 %** i, nooziq-ovqat mahsulotlar hissasiga **25,9 %** i, xizmatlar hissasiga **29,6 %** i to‘g‘ri keldi.

INIni shakllantirish quyidagi ikkita ma’lumotlar manbasi asosida amalga oshiriladi:

1) uy xo‘jaliklarida o‘tkaziladigan tanlanma kuzatuvlar ma’lumotlari asosida shakllanadigan aholining iste’mol xarajatlari tarkibi to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

2) hududlar, savdo va xizmat ko‘rsatish obyektlari, namuna tovarlar tanlanmasi doirasida narxlarni qayd etish ma’lumotlari.

Shunday qilib, har bir pozitsiyaning (bo‘lim, guruh, aniq tovar yoki xizmat) yig‘ma ko‘rsatkich o‘zgarishiga ta’siri pozitsiyaning narx o‘zgarishlari va xarajatlar tarkibidagi salmoq vaznidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

*) foiz darajasida

Ta’siri, f.d.    Umumiy ta’sirdagi ulushi, % da

avgust oyida o‘tgan yilning dekabriga nisbatan







avgust oyida o‘tgan yilning avgustiga nisbatan







oziq-ovqat mahsulotlari    nooziq-ovqat mahsulotlar    xizmatlar

Hisob-kitoblarga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari hissasiga uchta asosiy guruhlarning 2022- yil dekabrga nisbatan yig‘ma INI o‘sish sur’atiga jami ta’sirining **41,1 %** i atrofida (bir yil avval **51,3 %**) to‘g‘ri keldi. Xizmatlar narxlarining ta’siri uchta asosiy guruhlar orasida eng pastligicha qoldi va uning ulushi **24,5 %** ni tashkil etdi.

Yillik nisbatdagi yig‘ma INI o‘sish sur’ati asosan oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining o‘sishi bilan bog‘liq (**50,1 %**).

2021- yil yanvar oyidan boshlab, Davlat statistika qo‘mitasi MDHga a’zo davlatlar orasida birinchilardan bo‘lib iste’mol narxlari indeksi (INI)ni to‘liq BMTning Classification of Individual Consumption According to Purpose (COICOP) 2018 xalqaro standartiga asoslangan, Maqsadlar bo‘yicha individual iste’mol tasniflagichi – 2018 (MIIT – 2018) asosida shakllantirishni joriy etdi. O‘zR MIIT – 2018 statistika faoliyati sohasida foydalanish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, uy xo‘jaliklarining iste’mol xarajatlarini 13 ta bo‘limlarga guruhlashtirishni nazarda tutadi.

**avgust oyida o‘tgan oyga nisbatan ***

**I Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar**

| | |
|---|---|
| 2020 | 100,3 |
| 2021 | 100,7 |
| 2022 | 100,6 |
| 2023 | 100,6 |



**II Spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlari**

| | |
|---|---|
| 2020 | 100,7 |
| 2021 | 100,4 |
| 2022 | 101,5 |
| 2023 | 100,6 |



**III Kiyimlar va poyabzal**

| | |
|---|---|
| 2020 | 100,2 |
| 2021 | 100,3 |
| 2022 | 100,3 |
| 2023 | 100,1 |



**IV Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg‘i turlari**

| | |
|---|---|
| 2020 | 101,4 |
| 2021 | 100,1 |
| 2022 | 100,2 |
| 2023 | 100,6 |



**V Uy-ro‘zg‘or buyumlari, maishiy texnika va turar joylarga xizmat ko‘rsatish**

| | |
|---|---|
| 2020 | 100,4 |
| 2021 | 100,4 |
| 2022 | 100,6 |
| 2023 | 100,2 |



**VI Sog‘liqni saqlash**

| | |
|---|---|
| 2020 | 100,5 |
| 2021 | 100,3 |
| 2022 | 100,7 |
| 2023 | 100,3 |



* Statistik maqsadlarda 2020- yil uchun narxlar indeksi O‘zR MIIT–2018 bazasi tuzilmasida qayta hisob-kitob qilingan.

*Davomi*

avgust oyida o‘tgan oyga nisbatan

**VII Transport**

| | |
|---|---|
| 2020 | 101,3 |
| 2021 | 101,4 |
| 2022 | 100,1 |
| 2023 | 101,5 |



**VIII Axborot va aloqa**

| | |
|---|---|
| 2020 | 100,2 |
| 2021 | 100,2 |
| 2022 | 100,1 |
| 2023 | 100,1 |



**IX Dam olish, sport va madaniyat**

| | |
|---|---|
| 2020 | 100,3 |
| 2021 | 100,4 |
| 2022 | 100,9 |
| 2023 | 100,4 |



**X Ta’lim sohasidagi xizmatlar**

| | |
|---|---|
| 2020 | 100,0 |
| 2021 | 100,1 |
| 2022 | 100,3 |
| 2023 | 100,0 |



**XI Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari**

| | |
|---|---|
| 2020 | 101,3 |
| 2021 | 101,3 |
| 2022 | 102,0 |
| 2023 | 101,0 |




**XII Sug‘urtalash va moliyaviy xizmatlar**

| | |
|---|---|
| 2020 | 100,1 |
| 2021 | 100,0 |
| 2022 | 100,0 |
| 2023 | 100,8 |




**XIII Maishiy tovarlar va xizmatlar va boshqa tovarlar va xizmatlar**

| | |
|---|---|
| 2020 | 100,5 |
| 2021 | 100,4 |
| 2022 | 100,9 |
| 2023 | 100,8 |



2023-yilning avgustida bo‘limlar kesimidagi qisqa muddatli INI diapazoni **100,0 %** dan ( “Ta’lim sohasidagi xizmatlar” X bo‘lim) **101,5 %** gacha (“Transport” VII bo‘lim) chegarada joylashdi.

avgust oyida o‘tgan yilning dekabriga nisbatan

### Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar




I

### Spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlari




II

### Kiyim va poyabzal




III

### Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg‘i turlari




IV

### Uy-ro‘zg‘or asboblari, maishiy texnika va turar joylarga xizmat ko‘rsatish




V

### Sog‘liqni saqlash




VI

### Transport




VII

### Axborot va aloqa




VIII

*Davomi*

avgust oyida o‘tgan yilning dekabriga nisbatan
















“Spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlari” (II), “Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg‘i turlari” (IV) va “Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari” (XI) bo‘limlaridan boshqa barcha bo‘limlarda 2023- yilning yanvar-avgustidagi INI o‘tgan yilning mos ko‘rsatkichidan past darajada bo‘ldi.

**IZOH:** *O‘zR MIIT – 2018 tasniflagichi 2021- yildan INIni hisoblash amaliyotiga joriy etilgan. Statistik maqsadlarda 2021- yilning uzoq muddatli narxlar indeksini shakllantirish uchun 2020- yildagi qisqa muddatli INI O‘zR MIIT – 2018 tuzilmasi bo‘yicha qayta hisob-kitob qilingan.*

# O‘zR MIIT – 2018 BO‘LIMLARI BO‘YICHA INI, % da

avgust oyida o‘tgan yilning avgustiga nisbatan

| | Bo‘lim | 2021- y. | 2022- y. | 2023- y. |
|---|---|---|---|---|
| I | Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar | 115,7 | 116,2 | 110,0 |
| II | Spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlari | 110,2 | 110,8 | 111,1 |
| III | Kiyimlar va poyabzal | 106,7 | 108,8 | 106,3 |
| IV | Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg‘i turlari | 105,1 | 104,0 | 105,4 |
| V | Uy-ro‘zg‘or asboblari, maishiy texnika va turar joylarga xizmat ko‘rsatish | 107,9 | 111,6 | 108,3 |
| VI | Sog‘liqni saqlash | 110,2 | 111,4 | 115,0 |
| VII | Transport | 112,8 | 112,4 | 109,3 |
| VIII | Axborot va aloqa | 103,7 | 102,9 | 99,3 |
| IX | Dam olish, sport va madaniyat | 108,0 | 115,1 | 110,4 |
| X | Ta’lim sohasidagi xizmatlar | 104,0 | 108,0 | 102,4 |
| XI | Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari | 114,8 | 119,5 | 124,8 |
| XII | Sug‘urtalash va moliyaviy xizmatlar | 100,6 | 104,1 | 102,4 |
| XIII | Maishiy tovarlar va xizmatlar, turli tovarlar va xizmatlar | 110,7 | 114,6 | 110,5 |

2023- yilning avgust oyida eng past yillik INI axborot va aloqa sohasidagi tovarlar va xizmatlarda (**99,3** %) kuzatilgan bo‘lsa, restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari bo‘yicha INI **124,8** % darajasida qayd etildi.

**IZOH:** *O‘zR MIIT – 2018 tasniflagichi 2021- yildan INIni hisoblash amaliyotiga joriy etilgan. Statistik maqsadlarda 2021- yilning uzoq muddatli narxlar indeksini shakllantirish uchun 2020- yildagi qisqa muddatli INI O‘zR MIIT – 2018 tuzilmasi bo‘yicha qayta hisob-kitob qilingan. 2020- yilning avgustida 2019- yilning avgustiga nisbatan INI narxlarni taqqoslash uchun bazaning mavjud emasligi sababli shakllantirilmagan.*

## avgust oyida o‘tgan oyga nisbatan

Donli ekinlar va yorma mahsulotlari




Go‘sht va go‘sht mahsulotlari




Baliq va boshqa dengiz mahsulotlari




Sut, boshqa sut mahsulotlari va tuxum




Yog‘lar va moylar




Mevalar va yong‘oqlar




Sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkaklilar




Shakar, qandolat mahsulotlari va desertlar




Tayyor oziq-ovqat mahsulotlari va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari




Spirtsiz ichimliklar




“Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar” (I) bo‘limiga kiruvchi guruhlar kesimida 2023- yilning avgustidagi qisqa muddatli INI tebranishlari diapazoni **98,5 %** dan **103,7 %** gacha oraliqda joylashdi.

2023- yilning avgustida “Mevalar va yong‘oqlar” (**98,5 %**), “Yog‘lar va moylar” (**99,0 %**), “Donli ekinlar va yorma mahsulotlari” (**99,8 %**) guruhlarida 100 % ko‘rsatkichdan past qisqa muddatli INI qayd etildi. Shu bilan birga, un bo‘yicha INI **97,8 %** ni, kungaboqar moyida **98,1 %** ni, manniy yormasi va paxta yog‘ida **98,9 %** ni, vermishelda **99,3 %** ni, sariyog‘da **99,7 %** ni tashkil etdi.

Narxlarning oshishi sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkaklilarda qayd etilib, bu holat asosan mavsumiylik omili bilan izohlanadi.

avgust oyida o‘tgan yilning dekabriga nisbatan

### Donli ekinlar va yorma mahsulotlari




### Go‘sht mahsulotlari






### Baliq va boshqa dengiz mahsulotlari




### Sut, boshqa sut mahsulotlari va tuxum




### Yog‘lar va moylar




### Mevalar va yong‘oqlar




### Sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkaklilar




### Shakar, qandolat mahsulotlari va desertlar




### Tayyor oziq-ovqat mahsulotlari




### Spirtsiz ichimliklar




Yog‘-moy mahsulotlari hamda sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkalilarning joriy yilning avgustidagi o‘rtacha narxlari da-rajasi 2022- yilning yakuniga nisbatan pastligicha qoldi. “Yog‘lar va moylar” guruhi bo‘yicha INI 2023- yilning avgustida **91,6 %** ga, “Sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkaklilar” guruhi bo‘yicha **92,0 %** ga yetdi.

2022- yilning yanvar-avgustidagiga nisbatan donli ekinlar va yorma mahsulotlari (**104,4 %** ga **124,3 %**) hamda shakar, qandolat mahsulotlari va desertlar (**121,6 %** ga **106,7 %**) bo‘yicha INI ko‘rsatkichi past bo‘ldi.

avgust oyida o‘tgan yilning avgustiga nisbatan




2023- yilning avgustida yillik nisbatdagi INI “Donli ekinlar va yorma mahsulotlari” (**110,3 %** ga **130,1 %** yoki **-19,8** foiz band), “Yog‘lar va moylar” (**91,7 %** ga **114,0 %** yoki **-22,3** foiz band) va “Shakar, qandolat mahsulotlari va desertlar” (**109,3 %** ga **129,5 %** yoki **-20,2** foiz band) guruhlarida 2022- yilning avgustidagi mos ko‘rsatkichdan past bo‘ldi.

I bo‘lim guruhlari orasida “Yog‘-moy mahsulotlari” guruhida narxlarning o‘rtacha darajasi 2022- yilning avgustidagi ko‘rsatkichdan pastligicha qoldi.



# 2023- YILNING AVGUSTIDA ALOHIDA TURDAGI OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI INI, % da

## Guruch va guruch oqshog‘i

| 2023- yilning iyuliga nisbatan | 2022- yilning dekabriga nisbatan | 2022- yilning avgustiga nisbatan |
|---|---|---|
| 101,9 | 138,8 | 148,1 |

## Bug‘doy uni

| 2023- yilning iyuliga nisbatan | 2022- yilning dekabriga nisbatan | 2022- yilning avgustiga nisbatan |
|---|---|---|
| 97,8 | 87,5 | 91,4 |

## Suyakli mol go‘shti

| 2023- yilning iyuliga nisbatan | 2022- yilning dekabriga nisbatan | 2022- yilning avgustiga nisbatan |
|---|---|---|
| 101,2 | 107,5 | 113,0 |

## Qo‘y go‘shti

| 2023- yilning iyuliga nisbatan | 2022- yilning dekabriga nisbatan | 2022- yilning avgustiga nisbatan |
|---|---|---|
| 101,1 | 107,1 | 112,3 |

## Sut

| 2023- yilning iyuliga nisbatan | 2022- yilning dekabriga nisbatan | 2022- yilning avgustiga nisbatan |
|---|---|---|
| 100,3 | 109,9 | 118,7 |

## Tuxum

| 2023- yilning iyuliga nisbatan | 2022- yilning dekabriga nisbatan | 2022- yilning avgustiga nisbatan |
|---|---|---|
| 107,3 | 91,4 | 120,2 |

## Kungaboqar yog‘i

| 2023- yilning iyuliga nisbatan | 2022- yilning dekabriga nisbatan | 2022- yilning avgustiga nisbatan |
|---|---|---|
| 98,1 | 83,7 | 80,9 |

## Shakar

| 2023- yilning iyuliga nisbatan | 2022- yilning dekabriga nisbatan | 2022- yilning avgustiga nisbatan |
|---|---|---|
| 99,6 | 109,9 | 103,9 |

**o‘tgan oyga nisbatan**




**o‘tgan yilning dekabriga nisbatan**




**o‘tgan yilning avgustiga nisbatan**






Joriy yilning avgustida bir qator mevalar va sabzavotlar narxlarida pasayish qayd etildi. Narxlar pasaygan mahsulotlar bo‘yicha qisqa muddatli INI diapazoni **67,5 %** dan (pomidor) **97,7 %** gacha (nok) oraliqda joylashdi. Qovoq bir oyda respublika bo‘yicha 1 kg uchun o‘rtacha 2000 so‘mga qimmatlashib, qisqa muddatli narx indeksi eng yuqori bo‘lgan sabzavot bo‘ldi.

Baqlajon va bulg‘or qalampir joriy yil boshidan va o‘tgan yilning avgustiga nisbatan davr uchun ham narxlari pasayishi bo‘yicha yetakchilik qildi.

# 2023- YIL AVGUST OYIDA OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA SPIRTLI ICHIMLIKLAR ASOSIY GURUHLARIDAGI NARXLAR O‘ZGARISHINING YIG‘MA INI O‘SISH (PASAYISH) SUR’ATIGA TA’SIRI, f.d.da

**o‘tgan oyga nisbatan**

**Yig‘ma INI o‘sish sur’atiga jami ta’siri +0,22 f.d.**




**2022- yilning dekabriga nisbatan**

**Yig‘ma INI o‘sish sur’atiga jami ta’siri +1,32 f.d.**



# 2023- YIL AVGUST OYIDA OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA SPIRTLI ICHIMLIKLAR ASOSIY GURUHLARIDAGI NARXLAR O‘ZGARISHINING YIG‘MA INI O‘SISH (PASAYISH) SUR’ATIGA TA’SIRI, f.d.da

2022- yilning avgustiga nisbatan

Yig‘ma INI o‘sish sur’atiga jami ta’siri **+3,99 f.d.**




Joriy yilning avgustida mevalar va yong‘oqlar, yog‘lar va moylar, donli ekinlar va yorma mahsulotlari narxlarining pasayishi qisqa muddatli INIni tutib turuvchi omil bo‘ldi (jami ta’siri **-0,11 f.d.**). Go‘sht mahsulotlari, sut, sut mahsulotlari va tuxum, sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkaklilar kabi guruhlarning qisqa muddatli ko‘rsatkichga inflyatsion ta’siri **+0,32 f.d.** ga yetdi.

2023- yilning yanvar-avgustidagi INIga asosiy pasaytiruvchi ta’sir sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkaklilar hamda yog‘lar va moylar guruhlarida narxlarning pasayishiga tegishli bo‘ldi (**-0,59 f.d.**). Yuqori ta’sir ko‘rsatgan guruhlar orasida go‘sht mahsulotlari, donli ekinlar va yorma mahsulotlari, mevalar va yong‘oqlarni (**+1,37 f.d.**) ko‘rsatish mumkin.

Yillik INI o‘sish sur’atiga yuqori ta’sir go‘sht mahsulotlari (**+1,14 f.d.**), pasayishi esa yog‘lar va moylar (**-0,24 f.d.**) narxlarining o‘zgarishiga tegishli bo‘ldi.

**avgust** — o‘tgan oyga nisbatan | o‘tgan yilning dekabriga nisbatan | o‘tgan yilning avgustiga nisbatan*

## SPIRTLI ICHIMLIKLAR




## TAMAKI MAHSULOTLARI




## 2023- yilning avgustida asosiy turlar bo‘yicha INI, % da

### Vino




### Aroq




### Konyak




### Pivo




### Sigaret




### Boshqa tamaki mahsulotlari




*) bu yerda va keyingi o‘rinlarda 2020- yilning avgusti uchun 2019- yilning avgustiga nisbatan INI taqqoslashga bazaning mavjud bo‘lmaganligi sababli shakllantirilmagan (14- betga qarang)

Joriy yilning avgustida “Spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlari” (II) bo‘limida qisqa muddatli INI tebranishlari **100,3 %** dan (boshqa tamaki mahsulotlari) **101,3 %** gacha (vino) oraliqda joylashdi.

## avgust

o'tgan oyga nisbatan | o'tgan yilning dekabriga nisbatan | o'tgan yilning avgustiga nisbatan

### KIYIM






### POYABZAL






## 2023- yilning avgustida asosiy turlar bo'yicha INI, % da

### Kiyim tikish uchun materiallar




### Ustki kiyim




### Boshqa kiyim predmetlari va furnitura




### Kiyimlarni tozalash, ta'mirlash, tikish va ijaraga berish




### Botinkalar, tuflilar va boshqa poyabzallar




### Poyabzallarni tozalash, ta'mirlash va ijaraga berish




Joriy yilning avgustida "Kiyim va poyabzal" (III) bo'limida INI tebranishlari **99,1 %** dan (erkaklar uchun uyga kiyiladigan poyabzal) **101,2 %** gacha (kiyim tikish) atrofida joylashdi.

**avgust**

## TURAR JOY UCHUN AMALDAGI IJARA HAQI*



| | o‘tgan oyga nisbatan | o‘tgan yilning dekabriga nisbatan | o‘tgan yilning avgustiga nisbatan |
|---|---|---|---|
| 2020- y. | | | |
| 2021- y. | 100,1 | 102,3 | |
| 2022- y. | 100,4 | 102,6 | 109,2 |
| 2023- y. | 100,2 | 101,5 | 123,4 |

*) kuzatuvga 2021- yilda kiritilgan

## TURAR JOYLARGA XIZMAT KO‘RSATISH, TA’MIRLASH VA QO‘RIQLASH



| | o‘tgan oyga nisbatan | o‘tgan yilning dekabriga nisbatan | o‘tgan yilning avgustiga nisbatan |
|---|---|---|---|
| 2020- y. | 103,3 | 110,4 | |
| 2021- y. | 100,3 | 104,1 | 105,9 |
| 2022- y. | 100,5 | 107,7 | 110,5 |
| 2023- y. | 100,3 | 106,8 | 111,0 |

## SUV TA’MINOTI VA TURAR JOYLARNI SAQLAB TURISH BILAN BOG‘LIQ BOSHQA XIZMATLAR



| | o‘tgan oyga nisbatan | o‘tgan yilning dekabriga nisbatan | o‘tgan yilning avgustiga nisbatan |
|---|---|---|---|
| 2020- y. | 100,0 | 101,1 | |
| 2021- y. | 100,5 | 132,3 | 144,2 |
| 2022- y. | 100,0 | 101,8 | 102,0 |
| 2023- y. | 107,3 | 109,6 | 110,0 |

## ELEKTR, GAZ VA YONILG‘INING BOSHQA TURLARI



| | o‘tgan oyga nisbatan | o‘tgan yilning dekabriga nisbatan | o‘tgan yilning avgustiga nisbatan |
|---|---|---|---|
| 2020- y. | 100,0 | 100,0 | |
| 2021- y. | 100,0 | 100,0 | 100,1 |
| 2022- y. | 100,0 | 100,1 | 100,1 |
| 2023- y. | 100,0 | 100,0 | 100,0 |

*) kuzatuv 2021- yildan boshlab tashkil etilgan.

Joriy yilning avgustida respublikaning uchta hududida (Surxondaryo, Qashqadaryo va Toshkent vilyatlarida) sovuq suv va kanalizatsiya xizmatlari tariflarida o‘sish kuzatildi. Mazkur hududlarning ushbu xizmat iste’moli bo‘yicha aholi jami xarjatlaridagi ulushini hisobga olgan holda, sovuq suv va kanalizatsiya xizmatlarining INI oy davomida respublika bo‘yicha o‘rtacha **115,6 %** ni tashkil etdi.

Turar joylarga xizmat ko‘rsatish, ta’mirlash uchun materiallar bo‘yicha qisqa muddatli INI tebranishlari diapazoni **98,4 %** dan (metal truba va fitinglar) **100,6 %** gacha (barcha trudagi laklar) chegarada joylashdi.

**avgust**

## MEBEL VA UY-RO‘ZG‘OR ASBOBLARI



| | o‘tgan oyga nisbatan | o‘tgan yilning dekabriga nisbatan | o‘tgan yilning avgustiga nisbatan |
|---|---|---|---|
| 2020- y. | 100,2 | 102,5 | |
| 2021- y. | 100,2 | 103,7 | 106,7 |
| 2022- y. | 100,3 | 107,7 | 110,7 |
| 2023- y. | 100,2 | 103,5 | 106,5 |

## MAISHIY USKUNALAR



| | o‘tgan oyga nisbatan | o‘tgan yilning dekabriga nisbatan | o‘tgan yilning avgustiga nisbatan |
|---|---|---|---|
| 2020- y. | 100,4 | 103,7 | |
| 2021- y. | 100,4 | 106,4 | 109,0 |
| 2022- y. | 100,3 | 106,2 | 108,9 |
| 2023- y. | 100,4 | 104,1 | 107,7 |

## UY XO‘JALIKLARIDA ISHLATILADIGAN TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI



| | o‘tgan oyga nisbatan | o‘tgan yilning dekabriga nisbatan | o‘tgan yilning avgustiga nisbatan |
|---|---|---|---|
| 2020- y. | 100,3 | 103,9 | |
| 2021- y. | 100,5 | 102,4 | 106,8 |
| 2022- y. | 100,6 | 109,0 | 112,6 |
| 2023- y. | 100,1 | 103,7 | 107,5 |

## KUNDALIK TURMUSHDA VA BOG‘DORCHILIKDA ISHLATILADIGAN ASBOBLAR VA MOSLAMALAR



| | o‘tgan oyga nisbatan | o‘tgan yilning dekabriga nisbatan | o‘tgan yilning avgustiga nisbatan |
|---|---|---|---|
| 2020- y. | 100,5 | 104,9 | |
| 2021- y. | 100,3 | 103,8 | 105,7 |
| 2022- y. | 100,9 | 107,8 | 110,4 |
| 2023- y. | 100,3 | 104,1 | 106,6 |

## SHISHA IDISHLAR, OVQATLANISH UCHUN ASBOBLAR VA UY-RO‘ZG‘OR ANJOMLARI



| | o‘tgan oyga nisbatan | o‘tgan yilning dekabriga nisbatan | o‘tgan yilning avgustiga nisbatan |
|---|---|---|---|
| 2020- y. | 100,4 | 104,2 | |
| 2021- y. | 100,5 | 103,6 | 107,2 |
| 2022- y. | 100,5 | 106,6 | 109,5 |
| 2023- y. | 100,2 | 102,9 | 106,0 |

## UY XO‘JALIGINI YURITISH BILAN BOG‘LIQ HOLDA ISHLATILUVCHI TOVARLAR VA XIZMATLAR



| | o‘tgan oyga nisbatan | o‘tgan yilning dekabriga nisbatan | o‘tgan yilning avgustiga nisbatan |
|---|---|---|---|
| 2020- y. | 100,6 | 110,7 | |
| 2021- y. | 100,6 | 105,5 | 109,1 |
| 2022- y. | 101,1 | 111,3 | 114,6 |
| 2023- y. | 100,2 | 105,2 | 111,7 |

**avgust**

## DORI VOSITALARI VA TIBBIYOT MAHSULOTLARI



| | o‘tgan oyga nisbatan | o‘tgan yilning dekabriga nisbatan | o‘tgan yilning avgustiga nisbatan |
|---|---|---|---|
| 2020- y. | 100,7 | 109,2 | |
| 2021- y. | 100,3 | 104,1 | 108,1 |
| 2022- y. | 100,7 | 108,8 | 112,0 |
| 2023- y. | 100,0 | 106,7 | 115,4 |

## AMBULATORIYADA DAVOLASH BO‘YICHA XIZMATLAR



| | o‘tgan oyga nisbatan | o‘tgan yilning dekabriga nisbatan | o‘tgan yilning avgustiga nisbatan |
|---|---|---|---|
| 2020- y. | 100,1 | 106,4 | |
| 2021- y. | 100,5 | 104,9 | 112,0 |
| 2022- y. | 100,7 | 108,5 | 112,8 |
| 2023- y. | 101,1 | 107,7 | 115,8 |

## STATSIONARDA DAVOLASH BO‘YICHA XIZMATLAR



| | o‘tgan oyga nisbatan | o‘tgan yilning dekabriga nisbatan | o‘tgan yilning avgustiga nisbatan |
|---|---|---|---|
| 2020- y. | 100,1 | 103,8 | |
| 2021- y. | 100,1 | 107,9 | 111,5 |
| 2022- y. | 100,5 | 104,7 | 107,3 |
| 2023- y. | 100,3 | 106,8 | 110,4 |

## SOG‘LIQNI SAQLASH SOHASIDAGI BOSHQA XIZMATLAR



| | o‘tgan oyga nisbatan | o‘tgan yilning dekabriga nisbatan | o‘tgan yilning avgustiga nisbatan |
|---|---|---|---|
| 2020- y. | 101,0 | 108,1 | |
| 2021- y. | 100,4 | 108,4 | 114,2 |
| 2022- y. | 100,7 | 106,8 | 109,6 |
| 2023- y. | 100,6 | 104,2 | 115,3 |

“Sog‘liqni saqlash” (VI) bo‘limiga kiruvchi tovarlar bo‘yicha joriy yilning avgust oyidagi qisqa muddatli INI tebranishlari diapazoni **99,3 %** dan (shamollashga qarshi dori vositalari) **101,8 %** gacha (stomatologiya xizmatlari) oraliqda joylashdi.

Bundan tashqari, shpritslar (**99,4 %**), tibbiy niqob va qo‘lqoplar (**99,5 %**), tibbiy diagnostika mahsulotlari va immunizatsiya xizmatlari (**99,6 %**) narxlarida oy davomida 100 % lik darajadan past INI qayd etildi.

| avgust | o‘tgan oyga nisbatan | o‘tgan yilning dekabriga nisbatan | o‘tgan yilning avgustiga nisbatan |
|---|---|---|---|

## TRANSPORT VOSITALARINI SOTIB OLISH




| | o‘tgan oyga nisbatan | o‘tgan yilning dekabriga nisbatan | o‘tgan yilning avgustiga nisbatan |
|---|---|---|---|
| 2020- y. | 100,2 | 108,3 | |
| 2021- y. | 100,1 | 100,7 | 101,2 |
| 2022- y. | 100,1 | 108,4 | 108,8 |
| 2023- y. | 100,9 | 102,2 | 102,7 |

## SHAXSIY TRANSPORT VOSITALARIDAN FOYDALANISH




| | o‘tgan oyga nisbatan | o‘tgan yilning dekabriga nisbatan | o‘tgan yilning avgustiga nisbatan |
|---|---|---|---|
| 2020- y. | 101,5 | 100,6 | |
| 2021- y. | 102,8 | 111,6 | 119,9 |
| 2022- y. | 99,8 | 107,2 | 117,5 |
| 2023- y. | 102,4 | 106,2 | 103,6 |

## YO‘LOVCHI TASHISH TRANSPORTI XIZMATLARI



| | o‘tgan oyga nisbatan | o‘tgan yilning dekabriga nisbatan | o‘tgan yilning avgustiga nisbatan |
|---|---|---|---|
| 2020- y. | 101,3 | 106,3 | |
| 2021- y. | 100,1 | 103,0 | 108,1 |
| 2022- y. | 100,6 | 103,9 | 107,3 |
| 2023- y. | 100,5 | 106,0 | 117,8 |

## TOVARLARNI TASHISH BO‘YICHA XIZMATLAR




| | o‘tgan oyga nisbatan | o‘tgan yilning dekabriga nisbatan | o‘tgan yilning avgustiga nisbatan |
|---|---|---|---|
| 2020- y. | 100,9 | 105,2 | |
| 2021- y. | 100,3 | 103,6 | 108,2 |
| 2022- y. | 100,6 | 102,6 | 107,0 |
| 2023- y. | 100,2 | 102,2 | 116,8 |

2023- yilning avgustida o‘tgan oydagi kabi respublikaning barcha hududlarida benzin narxlari oshdi. Ushbu yoqilg‘i turida INI mamlakat bo‘yicha o‘rtacha **104,2 %** ni tashkil etdi. Hududlar kesimida benzin bo‘yicha INI tebranishlari **103,1-106,6 %** chegarasida joylashdi.

Avtotransport vositalari uchun gaz yoqilg‘isi bo‘yicha qisqa muddatli INI joriy yilning avgustida **103,0 %** ni, shu jumladan, propanda **105,2 %**, metanda **102,4 %** ni tashkil etdi.

Havo transportida yo‘lovchi tashish xizmatlari bo‘yicha qisqa muddatli INI avgust oyida **102,1 %** darajasida qayd etildi.

Temir yo‘l transportida yo‘lovchi tashish xizmatlari bo‘yicha INI 2023- yilning iyuliga nisbatan **100,6 %** ni tashkil etdi.

**avgust** | o‘tgan oyga nisbatan | o‘tgan yilning dekabriga nisbatan | o‘tgan yilning avgustiga nisbatan

## AXBOROT VA KOMMUNIKATSIYA USKUNALARI




Axborot va kommunikatsiya uskunalari bo‘yicha qisqa muddatli INI joriy yilning avgustida **100,0 %** darajasida qayd etildi. Shu bilan birga, ushbu guruhga kiruvchi tovarlarning narxlari o‘zgarishi notekis bo‘ldi. Mazkur guruhga kiruvchi tovarlarning qisqa muddatli INI tebranishlari diapazoni joriy yilning avgust oyida **99,7 %** dan (mobil telefon uskunalari) **100,7 %** gacha (kompyuter va planshetlar) oraliqda joylashdi.

## AXBOROT VA ALOQA SOHASIDAGI XIZMATLAR




Ushbu guruhga kiruvchi xizmatlar orasida narxlarning oshishi faqatgina kompleks telekommunikatsiya xizmatlari hamda axborot va kommunikatsiya uskunalarini ta’mirlash bo‘yicha xizmatlarda qayd etilib, qisqa muddatli INI **99,9 %** va **102,6 %** ni tashkil etdi.

## avgust

### DAM OLISHNI TASHKIL ETISH BO'YICHA XIZMATLAR



| | o'tgan oyga nisbatan | o'tgan yilning dekabriga nisbatan | o'tgan yilning avgustiga nisbatan |
|---|---|---|---|
| 2020- y. | 100,0 | 101,0 | |
| 2021- y | 100,6 | 106,3 | 110,2 |
| 2022- y. | 100,4 | 105,6 | 110,1 |
| 2023- y. | 100,5 | 106,2 | 109,6 |

### MADANIY TADBIRLARNI TASHKIL ETISH BO'YICHA XIZMATLAR




| | o'tgan oyga nisbatan | o'tgan yilning dekabriga nisbatan | o'tgan yilning avgustiga nisbatan |
|---|---|---|---|
| 2020- y. | 100,3 | 103,2 | |
| 2021- y | 100,1 | 105,0 | 107,9 |
| 2022- y. | 100,4 | 107,0 | 112,4 |
| 2023- y. | 100,6 | 109,4 | 113,6 |

### KOMPLEKS DAM OLISHNI TASHKIL ETISH



| | o'tgan oyga nisbatan | o'tgan yilning dekabriga nisbatan | o'tgan yilning avgustiga nisbatan |
|---|---|---|---|
| 2020- y. | 100,1 | 102,3 | |
| 2021- y | 100,4 | 103,2 | 103,9 |
| 2022- y. | 100,0 | 107,9 | 109,7 |
| 2023- y. | 100,0 | 117,8 | 118,0 |

### BOG'DORCHILIK MAHSULOTLARI, UY HAYVONLARI



| | o'tgan oyga nisbatan | o'tgan yilning dekabriga nisbatan | o'tgan yilning avgustiga nisbatan |
|---|---|---|---|
| 2020- y. | 100,6 | 105,5 | |
| 2021- y | 99,0 | 99,7 | 102,5 |
| 2022- y. | 100,1 | 106,2 | 110,8 |
| 2023- y. | 99,9 | 104,3 | 108,3 |

### GAZETALAR, KITOBLAR VA KANSELYARIYA TOVARLARI



| | o'tgan oyga nisbatan | o'tgan yilning dekabriga nisbatan | o'tgan yilning avgustiga nisbatan |
|---|---|---|---|
| 2020- y. | 100,4 | 105,5 | |
| 2021- y | 101,2 | 104,7 | 109,7 |
| 2022- y. | 102,5 | 124,6 | 129,3 |
| 2023- y. | 99,9 | 103,8 | 108,1 |

### DAM OLISH UCHUN BOSHQA TOVARLAR



| | o'tgan oyga nisbatan | o'tgan yilning dekabriga nisbatan | o'tgan yilning avgustiga nisbatan |
|---|---|---|---|
| 2020- y. | 100,5 | 103,3 | |
| 2021- y | 100,7 | 103,1 | 106,6 |
| 2022- y. | 100,6 | 106,8 | 110,1 |
| 2023- y. | 100,7 | 103,0 | 106,3 |

2023- yilning avgust oyi davomida narxlarning **0,2-1,9 %** chegarasida pasayishi alohida turdagi kanselyariya tovarlari, kitoblar va gullarda kuzatildi. Daftarlar va hujjatlar uchun muqovalar bo'yicha yuqoriroq INI ko'rsatkichi qayd etildi (**102,4 %**).

**avgust** | o'tgan oyga nisbatan | o'tgan yilning dekabriga nisbatan | o'tgan yilning avgustiga nisbatan

## MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM




## OLIY TA'LIM




## BOSQICHLARGA BO'LINMAGAN TA'LIM




## 2023- yilning avgustida asosiy turlar bo'yicha INI, % da

### Xususiy MTTlar xizmatlari




### Repetitorlar xizmatlari




### Kurslarda o'qitish




Davlat MTT hamda oliy ta'lim sohasidagi xizmatlarning narxlari darajasida joriy yilning avgust oyida o'zgarishlar kuzatilmadi.

Oy davomida repetitorlar hamda o'quv kurslarida o'qitish xizmatlari narxlarida sezilarsiz pasayish kuzatildi.

**avgust** | o‘tgan oyga nisbatan | o‘tgan yilning dekabriga nisbatan | o‘tgan yilning avgustiga nisbatan

## OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA ICHIMLIKLARNI YETKAZIB BERISH BO‘YICHA XIZMATLAR






## MEHMONXONALAR XIZMATLARI







## 2023- yilning avgustida asosiy turlar bo‘yicha INI, % da

### Kafelardagi tayyor taomlar




### Oshxonalardagi tayyor taomlar




### Tez pishar taomlar tayyorlanadigan oshxonalar xizmatlari




### Otellar, mehmonxonalar va shunga o‘xshash tashkilotlar xizmatlari




### Dam olish maskanlari va shunga o‘xshash tashkilotlar xizmatlari




Qator hududlarda oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berish xizmatlari narxlarida **0,3-5,3 %** chegarasida o‘sish kuzatildi.

Mamlakatning uchta hududida mehmonxonalar xizmatlari narxlarida o‘sish kuzatildi.

## avgust

### SUG‘URTA




o‘tgan oyga nisbatan




o‘tgan yilning dekabriga nisbatan




o‘tgan yilning avgustiga nisbatan




### MOLIYAVIY XIZMATLAR




o‘tgan oyga nisbatan




o‘tgan yilning dekabriga nisbatan




o‘tgan yilning avgustiga nisbatan




So‘nggi yillar davomida kuzatiladigan sug‘urta xizmatlari bozoridagi narxlar darajasi barqarorlikni saqlab qoldi.

2023- yil avgustida moliyaviy xizmatlar orasida narxlar oshishi faqatgina banklar orqali pul yuborish xizmatlari (**104,1 %**) hamda bank muassasalari xizmatlarida (**101,6 %**) qayd etildi.

# “MAISHIY TOVARLAR VA XIZMATLAR, IJTIMOIY HIMOYA VA TURLI TOVARLAR VA XIZMATLAR” BO‘LIMI (XIII), % da

**avgust** | o‘tgan oyga nisbatan | o‘tgan yilning dekabriga nisbatan | o‘tgan yilning avgustiga nisbatan

## MAISHIY TOVARLAR VA XIZMATLAR




## SHAXSIY FOYDALANISH UCHUN BOSHQA PREDMETLAR




## BOSHQA XIZMATLAR




Joriy yilning avgustida maishiy tovarlar va xizmatlar bo‘yicha qisqa muddatli INI tebranishlari diapazoni **100,0 %** dan (bolalar tagliklari), **101,5 %** gacha (fenlar) oraliqda joylashdi.

“Shaxsiy foydalanish uchun boshqa buyumlar” guruhida qisqa muddatli INI darajasi joriy yilning avgustida **100,3 %** dan (qo‘l soatlari) **101,7 %** gacha (o‘quvchilar sumkalari) oraliqda joylashdi.

Boshqa xizmatlar orasida 2023- yilning avgustida 100 % lik darajadan yuqori indeks diniy xizmatlarda (**104,4 %**), past indeks esa hujjalardan nusxa ko‘cherish xizmatlarida (**99,5 %**) qayd etildi.

Yig‘ma ko‘rsatkich o‘zgarishiga har bir pozitsiyaning (bo‘lim, guruh, muayyan tovar yoki xizmat) ta’sir ulushi va hissasi pozitsiyalarning narxlar o‘zgarishlari va aholi xarajatlari tarkibidagi salmoq vaznlarini hisobga olgan holda aniqlanadi.

**Narx indeksi salmog‘i** – narx indeksining shakllanishida qatnashuvchi o‘lcham bo‘lib, ular yordamida:

- kuzatilayotgan hodisalarning umumiy yig‘indisidagi har bir aniq tarkibiy qismning mazmuni ifodalanadi;
- avvaldan o‘zaro solishtirib bo‘lmaydigan birlamchi tarkibiy qismlar taqqoslanadigan shaklga keltiriladi;
- qo‘llanilayotgan tasniflagichning barcha bosqichlari bo‘yicha o‘zaro solishtirilishi mumkin bo‘lgan tarkibiy qismlar ketma-ketligi umumlashtiriladi va o‘rganilayotgan hodisa bo‘yicha narx o‘zgarishining umumiy mohiyati aniqlanadi.




2023- yilning avgust oyida qisqa muddatli yig‘ma ko‘rsatkich o‘sish sur’atiga oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar narxlaridagi o‘zgarishlar yuqori ta’sir ko‘rsatib, ularning hissasiga umumiy ta’sir darajasining **40,7 %** i to‘g‘ri keldi.

Transport sohasida hamda uy-joy kommunal xizmatlarida iste’mol narxlarining o‘zgarishi oylik yig‘ma INI ni jami hisobda **0,19 f.d.** (umumiy ta’sir darajasidagi ulushi **35,2 %**) ni tashkil etdi.

**2023- yilning yanvar-avgustidagi yig‘ma INI o‘zgarishiga ta’siri, f.d. +3,84**




2022- yilning dekabriga nisbatan yig‘ma INI o‘sish sur’atining uchdan bir ulushidan ortig‘i (**34,4 %**) oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar narxlari o‘zgarishi bilan ta’minlandi. Ularning ta’siri umumiy **3,84 f.d.** o‘sish sur’atida **1,32 f.d.** ga yetdi.

“Transport” va “Sog‘liqni saqlash” bo‘limlaridagi narxlar o‘zgarishi ham sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Jami hisobda, ularning 2022- yilning dekabriga nisbatan yig‘ma INI o‘sish sur’atiga jami ta’siri **0,88 f.d.**, yoki umumiy ta’sir darajasidagi ulushi **22,9 %** ni tashkil etdi.

“Axborot va aloqa” bo‘limida narxlarning pasayishi tutib turuvchi omil sifatida xizmat qilib, ularning hisobiga yig‘ma INI **0,01 f.d.** pasaydi.

# 2023- YIL AVGUST OYIDA O‘zR MIIT – 2018 BO‘LIMLARI KESIMIDA TOVARLAR VA XIZMATLAR NARXLARI O‘ZGARISHINING YIG‘MA INI O‘SISHIGA TA’SIRI

**2023- yilning avgustidagi yillik yig‘ma INI o‘zgarishiga ta’siri, f.d. +8,96**




2022- yilning avgustiga nisbatan yig‘ma INI o‘sish sur’atiga umumiy ta’sir darajasining **44,5 %** i oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar narxlarining o‘zgarishlari bilan bog‘liqdir. Ularning ta’siri **3,99 f.d. ni** tashkil etdi.

Sog‘liqni saqlash sohasida narxlarning o‘sishi hissasiga umumiy ta’sirning **11,0 %** i, transport sohasi hissasiga – **8,4 %** to‘g‘ri keldi.

Joriy yilning yanvar-avgustidagi INI kabi yillik ko‘rsatkichni tutib turuvchi omil sifatida aloqa xizmatlari narxlarining pasayishi xizmat qilib, ularning hisobiga yig‘ma ko‘rsatkich **0,02 f.d.** pasaydi.